



XALQARO HUQUQ NORMALARIDA FAVQULODDA HOLAT VA INSON HUQUQLARINI CHEKLASH ASOSLARI.

Bobonazarov Muhammadjon Muzaffar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Xalqaro huquq va inson huquqlari” mutaxassisligi magistiri

muzaffarovichmuhammadjon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15684620>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14- Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 17- Iyun 2025 yil

KEYWORDS

proportsionallik, sirakuza prinsipi, qonuniylik, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt”.

ABSTRACT

Ushbu maqolada xalqaro huquq normalarida inson huquqlarini cheklash asoslari va bu cheklovlar doirasida amal qilinishi kerak bo'lgan xalqaro prinsiplar yoritiladi. Xalqaro huquqiy hujjatlar “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt”, kabi xalqaro huquqiy hujjatlarda aynan qaysi normalarda inson huquqlarini cheklashga ruxsat berilgan normalar haqida batafsil yoritilgan.

Inson huquqlari oily qadriyat hisoblanadi va bizning Konstitutsiyamizda ham bu tushuncha o'z aksini topgan. Lekin, bu degani inson huquqlarini hech qachon cheklab bo'lmaydi degan tushunchaga olib bormasligi kerak. Ya'ni inson huquqlarni ham ma'lum vaziyatlarda, asosan, favqulodda holatlarda cheklashga ruxsat etiladi. Lekin ushbu cheklovlar ma'lum bir shartlarga ya'ni prinsiplarga mos bo'lishi kerak. Rossiyalik olimlardan Adelsitova A, Ablaeva D o'zlarining maqolalarida inson huquqlarini cheklashda rioya qilinishi kerak bo'lgan prinsiplarga to'xtalib o'tganlar va bular quyidagilar¹:

1.Real xavfning mavjudligi prinsipi – ya'ni cheklovni joriy etish uchun dvlrat, jamiyat yoki fuqarolarga nisbatan aniq xavf-xatar mavjud bo'lgandagina joriy etilishi prinsipi. Ushbu prinsip orqali ko'rishimiz mumkinki, favqulodda holatlar joriy qilinadi va inson huquqlari cheklanadi qachonki, real xavf vujudga kelganda.

2.Belgilangan chekovlarning aniqligi prinsipi – ushbu prinsipga ko'ra cheklovlarni aniq shakllantirish kerak, ya'ni favquloda holat e'lon qilish to'g'risida qanaqadir qonun hujjati e'lon qilinsa, ushbu hujjatda insonlarning qaysi huquqlari cheklanayotganligi haqida aniq tushuntirishlar va cheklanayotgan huquqlar ro'yxati bo'lishi kerak. Shunda kuchishlalar tizimlar cheklovlarni o'zboshimchalik bilan talqin qilishga yo'l qo'yilmaydi.

3.Kiritilgan cheklovlarning mutanosibligi prinsipi – ya'ni favqulodda holat joriy qilish uchun sabab bo'lgan holatga insonlarning cheklanayotgan huquqlari mutanosib bo'lishi kerakligi prinsipi. Ya'ni favqulodda holatga sabab bo'lgan xatarga nisbatan insonlarning cheklanayotgan huquqlari mos bo'lishi kerak. Hukumatlar favqulodda hlatni bahona qilib insonlarning huquqlarini suiste'mol qilmasliklari kerak.

4.Kamsitishga yo'l qo'yilmasligi prinsipi – hamma qonun va sud oldida tengdir va huquqlarni irqi, dini, millati va bosha mansubligiga ko'ra ko'p yoki kamroq darajada

cheklashga yo'l qo'yilmasligi prinsipi. Ushbu prinsip barchamizga tushunarli, ya'ni favqulodda holat joriy qilinib insonlarning huquqlari cheklanganda bu cheklovlar barcha insonlarga nisbatan bir xil bo'lishi kerakligi prinsipi.

Ana shunday muhim bo'lgan prinsiplardan biri bu "sirakuza prinsipi"dir. Ushbu prinsipning ma'nosi quyidagicha "ya'ni biror bir davlat o'z hududida favqulodda holat joriy qilmoqchi bo'lsa va insonlarning ma'lum bir huquqlarini cheklamoqchi bo'lsa, albatta ushbu holatni aholiga e'lon qilishi kerak". Ya'ni parlament yoki davlat rahbari tomonidan rasman e'lon qilinib, qonunda belgilangan qaysi huquq va erkinliklarga cheklov qo'yilishi ko'rsatilishi kerak. Misol tariqasida oladigam bo'lsak, COVID-19 davrida insonlarning erkin harakatlanish huquqi cheklandi va aholi ma'lum bir belgilangan chegaradan chiqib keta olmadi. Shunga o'xshab insonlarning qaysi huquqlari cheklanishi qonun hujjatlari orqali e'lon qilinishi kerak.

Asosiy qism: Favqulodda holatlarda inson huquqlarini cheklash sohasida ilmiy ish olib brogan Rossiyalik fuqarolik huquqi bo'yicha yetakchi mutaxassislardan biri Y.Vladimirovna ushbu holatlarda fuqarolarning qaysi huquqlari cheklanishiga to'xtalgan va quyidagi huquqlarning cheklanishi mumkin deb hisoblagan. Bular, harakat erkinligi, maxfiylik huquqi, yig'ilish va yig'ilishlar erkinligi, mehnat huquqi, xususiy mulk huquqi, axborot erkinligini cheklash kabi huquqlardir. Shuningdek, u hukumat favqulodda vaziyatlarda inson huquqlarini cheklayotganda quyidagi tamoyillarga amal qilishi kerakligini ta'kilagan. Bulardan birinchisi, proporsianallik ya'ni fuqarolarning huquqlarini cheklash favqulodda vaziyatning og'irligiga mutanosib bo'lishi va aniq maqsadlarga erishish uchun zarur choralardan oshmasligi kerak. Ushbu prinsipga ko'ra hukumatlar favqulodda holat joriy qilinganda insonlarning huquqlarini haddan ortiq cheklamasligi kerak. Bu prinsip juda ham munim hisoblanadi, chunki hukumat insonlarning huquqlarini cheklashni aniq maqsadga erishish yo'lida haddan oshirib yuborsa, insonlarda hukumatga va davlatga nisbatan ishonchsizlik oshib ketishi mumkin. Keyingi muhim prinsiplardan biri bu, favqulodda holatning vaqtinchalik joriy qilinishi, ya'ni har bir joriy qilingan favqulodda holat rejimi vaqtinchalik, ma'lum bir muddatga mo'ljallangan va maqsadga erishilgandan keyin favqulodda holat rejimi bekor qilinishi kerak. Shuningdek, ushbu prinsipga ko'ra insonlarning huquqlari ham ma'lum bir vaqt oralig'ida cheklanishi kerak va ushbu holat davomiy bo'lmasligi kerak. Navbatdagi prinsiplardan biri bu, huquq va erkinliklarni saqlash, insonlarning huquqlarini cheklash Konstitutsiya va inson huquqlari xalqaro standartlari bilan kafolatlangan asosiy huquq va erkinliklarni buzmasligi kerak. Navbatdagi prinsiplardan biri jamoatchilik ishtiroki prinsipi, ushbu prinsipning ma'nosi quyidagicha – hokimiyat qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilik ishtirokini ta'minlashi kerak. Keyingi muhim prinsip – diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligi. Ya'ni favqulodda holat joriy qilinganda va insonlarning huquqlarini cheklovchi normalar joriy qilinganda, ushbu normalar barcha uchun bir xil bo'lishi kerak.

Endi xalqaro davlatlar tajribasida mana shu favqulodda holatlarda inson huquqlarining cheklanishi doirasida ba'zi malakatlar tomonidan yuqorida ko'rsatib o'tilgan prinsiplarning buzilishiga oid misollar va sud amaliyotlari bilan tanishib chiqamiz. Birinchi holat "Aksoy vs Turkey 1996" ishi hisoblanadi. Ushbu ish "Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Sudi"² da ko'rib chiqilgan. Ishning mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, Sadik Aksoy – Turkiya fuqarosi, Diyorbakirda yashagan. U PKK terrorchilik tashkilotiga aloqadorlikda gumon qilinib, 14 kun

davomida rasmy ayblovsiz hibsdan ushlab turilgan. Aksoyning aytishicha, uni qiynoqqa solishgan: elektr toki berish, boshiga qop kiydirish, kaltaklash. Turkiya hukumati o'sha vaqtda janubiy-sharqiy mintaqada favqulodda holat e'lon qilganini, shuning uchun 5-modda (hujjatda rasmiy ayblovsiz 4 kundan ortiq ushlab turish mumkin emas) bo'yicha inson huquqlari cheklanganini e'lon qilgan. Sud qarori esa quyidagicha bo'lgan:

1.5-modda bo'yicha (erkinlik va xafsizlik huquqi) doirasida sud tan oladiki Turkiya haqiqatan ham ushbu hududda favqulodda holat e'lon qilgan, lekin ushbu vaziyatda 14 kunlik ushlab turish zaruriyatga mos emas. Bundan tashqari Turkiya tomonidan qiynoqqa solish holatlari yuz bergan va hech qanday holatda (hatto favqulodda holatda ham) qiynoqqa solishni oqlab bo'lmasligini bayon qilgan. Demak, Aksoy ishi favqulodda holatdagi inson huquqlarini cheklashning asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan – zaruriyat prinsipining buzilganini ochiq ko'rsatgan. Favqulodda holat mavjud bo'lishi mumkin, lekin bu avtomatik tarzda har qanday huquqni istalgancha cheklashga asos bo'lmaydi.

Favqulodda holatlarda inson huquqlarini cheklash qaysi xalqaro huquqiy hujjatlarda aks etgan, o'zi xalqaro huquqiy hujjatlarda bu masalada qanday normalar bor degan savolga javob beradigan bo'lsak, xalqaro huquqiy hujjatlardan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" ning tegishli moddalarida to'xtalib o'tilgan. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 29-moddasi 2-bandiga ko'ra: "Har bir inson o'z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o'zгалarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo'lishini hamda hurmat qilinishini ta'minlash, axloq, jamoat tartibi, umumfarovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak"³. Bu normada ko'rishimiz mumkinki, insonlarning ma'lum bir vaziyatlarda huquqlari cheklanishi mumkin. Bu ma'lum bir holatlarda ya'ni jamoat tartibini saqlash maqsadida yoki boshqa insonlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida malakatlarda "Favqulodda holat rejimi" joriy qilinishi mumkin va bu holatlarda insonlarning huquqlari ma'lum bir darajada cheklanishi mumkin. Endi aynan shu moddaning 3-bandiga nazar tashlaydigan bo'lsak: "Ushbu huquq va erkinliklarni amalga oshirish Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va prinsiplariga zid bo'lmasligi kerak" deya ta'kidlangan. Ya'ni asosan hukumatlar tomonidan insonlarning huquqlari ma'lum bir vaqtlarda cheklansa ham ushbu cheklovlar ma'lum bir prinsiplarga mos bo'lishi kerak.

Keyingi favqulodda holatlarda inson huquqlarini cheklash mumkinligi haqida normalar mavjud bo'lgan xalqaro huquqiy hujjat bu 1966-yilda qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" hisoblanadi. Ushbu paktga O'zbekiston Respublikasi ham a'zo. Ushbu paktning 4-moddasiga nazar soladigan bo'lsak:

"1.Davlatda favqulodda holat yuz bergan vaqtda, millat hayoti tahdid ostida qolgan va bu holat haqida rasmiy ravishda e'lon qilinganda ushbu Paktga ishtirok etuvchi davlatlar mazkur Pakt bo'yicha olgan o'z majburiyatlaridan chekinish uchun choralar ko'rishi mumkin, lekin bu chekinishni ahvol keskinligi talab etgan bo'lishi hamda bu choralar xalqaro huquq bo'yicha boshqa majburiyatlarga xilof bo'lmasligi va irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishiga qarab kamsitishga olib kelmasligi kerak.

2.Ushbu qoida 6,7,8 (1 va 2-bandlar), 11, 15, 16 va 18-moddalardan biror – bir chekinish uchun asos bo'la olmaydi.

3. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi chekinish huquqidan foydalanuvchi har qanday o'zi chekingan qoidalar haqida va shunday qarorga kelishga olib kelgan sabablar haqida darhol Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi orqali mazkur Paktda ishtirok etuvchi boshqa davlatlarni xabardor qilishi kerak. Shuningdek, o'sha vositachi orqali bunday chekinish to'xtatiladigan sana to'g'risida ham xabar berilishi kerak"⁴. Demak ushbu moddaga e'tibor beradigan bo'lsak, ushbu pakt xalqaro miqyosida inson huquqlarini himoya qiladi, shuning bilan birga inson huquqlarini cheklashga ma'lum bir vaqtlarda ruxsat berilishi mumkinligi ham yuqoridagi moddada keltirib o'tilganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni ushbu inson huquqlarini cheklashga ruxsat beriladigan holatlar favqulodda holatlar ekanligi ham ta'kidlangan. Lekin shuning bilan birga 4-moddadaning 2-qismiga qaraydigan bo'lsak, ushbu normada paktda keltirilgan 6,7,8 (1 va 2-bandlar), 11,15,16 va 18-moddalarda keltirilgan ma'lum bir inson huquqlari hattoki, favqulodda holatlarda ham cheklanishiga yo'l qo'yilmasligi ham ta'kidlangan. Endi bu huquqlar qaysi ekanligini bilish uchun yana ushbu paktga e'tibor berishimiz kerak. Endi 6-moddaning 1-bandida quyidagicha norma keltirilgan: "1. Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonun bilan muhofaza qilinadi. Hech kim o'zboshimchalik bilan hayotdan mahrum etilishi mumkin emas"⁵. Endi ushbu moddada ta'kidlangan "yashash huquqi" bu insonlarning uzviy huquqi ekanligi uni hattoki favqulodda holat rejimida ham cheklash mumkin emasligi ushbu paktda keltirilgan.

Keyingi 7-moddaning 1-bandiga e'tibor beradigan bo'lsak, "Hech kim qiynoqlarga yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoki jazoga duchor etilmasligi kerak. Jumladan, hech bir shaxs ustidan o'zining erkin roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajriba o'takazilishi mumkin emas". Ushbu norma orqali ko'rishimiz mumkinki, qiynoqlarga solish, insonlarga shafqatsiz, g'ayriinsoniy muomilada bo'lish kabi ishlar hattoki favqulodda holat rejimida ham bu ishlarga ruxsat berilmasligi ushbu Paktda o'z aksini topgan.

Navbatdagi modda bu 8-moddaning 1-qismiga nazar tashlaydigan bo'lsak, "1. Hech kim qullikda saqlanmasligi kerak; qullik va qul savdosining barcha ko'rinishlari taqiqlanadi". Ya'ni qullik ham favqulodda holat rejimida ham ruxsat berilmagan normalaridan biri.

Keyingi norma bu 15-modda, ushbu normaga ko'ra, "Hech kim sodir etilgan paytida davlatning amalda bo'lgan ichki qonun hujjatlari yoki xalqaro huquqqa ko'ra jinoyat hisoblanmagan biror-bir harakati yoki xato ish qilib qo'yganligi uchun jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilishi mumkin emas. Xuddi shuningdek, jinoyat sodir etilgan vaqtda qo'llanishi lozim bo'lgan jazoga nisbatan og'irroq jazo tayinlanishi mumkin emas. Agar jinoyat sodir etilganidan keyin qonun bilan nisbatan yengil jazo belgilansa, ushbu qonun mazkur jinoyatchiga nisbatan qo'llaniladi"⁶. Ushbu moddaga ko'ra jinoyat haqida gap ketmoqda va hech kim sodir etilgan hatti harakati mamlakat ichki qonunida va xalqaro huquqqa ko'ra jinoyat deb hisoblanmasa ushbu sodir etgan harakati jinoyat hisoblanmasligi kerak. Ushbu normaning favqulodda holat rejimiga aloqadorligi shundaki, insonning sodir etgan harakati favqulodda holat rejimida sodir etilgan bo'lsa ham, lekin mamlakat ichki qonunida yoki xalqaro huquqda jinoyat sifatida baholanmagan bo'lsa ushbu harakat favqulodda holat rejimida sodir etilganligini bahona qilib ushbu harakatni jinoyat sifatida baholash ushbu paktga ko'ra qat'iyon taqiqlangan.

Navbatdagi 16-moddaga ko'ra: "Har bir inson qayerda turishidan qat'i nazar uning subyektlik maqomi tan olinishi huquqiga ega". Ya'ni ushbu normaga ko'ra hukumat favqulodda holat rejimini bahona qilib fuqarolarning subyektlik maqomini ya'ni qaysi davlatga tegishlilikini ushbu davlat rad qilishi mumkin emas. Ya'ni mamlakat favqulodda holat rejimini bahona qilib o'z fuqarosidan voz kechishi yoki fuqaroning subyektlik maqomini inkor qilishi mumkin emas.

Keyingi modda 18-moddaning 1-qismi va ushbu normada keltirilgan inson huquqlarini hukumat yoki mamlakat favqulodda holat rejimida ham taqiqlashi yoki cheklashi mumkin emas. Endi ushbu normaga yuzlanadigan bo'lsak: "1.Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Ushbu huquq o'z ixtiyori bilan o'ziga ma'qul dinni qabul qilish va e'tiqod qilish erkini, yakka holda, shuningdek boshqalar bilan birgalikda, oshkora yoki xususiy tartibda ibodat qilish, diniy va boshqa urf-odatlarini va marosimni bajarish erkini o'z ichiga oladi". Yuqorida ham ta'kidladikki hukumat hattoki favqulodda holat davrida ham insonlarning fikr, vijdon va din erkinligi kabi huquqlarini cheklashi ushbu paktga ko'ra qat'iyman man qilingan.

Ushbu paktga keltirilgan 12-moddaga nazar soladigan bo'lsak, ushbu modda ham favqulodda holatlar rejimida inson huquqlarini cheklash mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu norma quyidagicha:

"1.Biror – bir davlat hududida qonuniy ravishda turgan har bir kishi ushbu hudud doirasida erkin ko'chib yurish va yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega.

2.Har bir kishi har qanday mamlakatni, jumladan o'z mamlakatini tark etish huquqiga ega.

3.Yuqorida qayd etilgan huquqlar hech qanday cheklash obyekti bo'lishi mumkin emas, qonunda nazarda tutilgan davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi salomatligini yoki ma'naviyatini yoki boshqalarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan va ushbu Paktga e'tirof etilgan boshqa huquqlarga mos keladigan cheklashlar bundan mustasno.

4.Hech kim o'z mamlakatiga kirish huquqidan o'zboshimchalik bilan mahrum etilishi mumkin emas"⁷. Endi ushbu normani sharhlaydigan bo'lsak, uning mazmuni quyidagicha 1-bandida ma'lum bir davlat hududida qonuniy ravishda turgan har bir kishi ushbu davlat hududida erkin ko'chib yurishi va yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan. 2-bandda esa, har bir inson har qanday mamlakatni jumladan o'z mamlakatini tark etish huquqiga ega ekanligi bayon qilingan. Biz uchun muhim bo'lgan band bu 3-band hisoblanadi. Ushbu bandga yuzlanadigan bo'lsak, unga ko'ra yuqoridagi 1 va 2-bandlardagi huquqlar hech qanday cheklash obyekti bo'lishi mumkin emasligi ta'kidlangan, ammo qonunda nazarda tutilgan ma'lum bir hollarda insonlarning ushbu huquqlarini cheklash mumkin ekanligi ko'rsatilgan. Xo'sh bu qonunda nazarda tutilgan holler qaysilar degan savolga javob beradigan bo'lsak, bular: davlat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholi salomatligi yoki ma'naviyatini yoki boshqalarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan holatlar. Endi ushbu holatlarning har biriga alohida alohida to'xtaladigan bo'lsak, 1-holat "davlat xavfsizligini ta'minlash", demak hukumatlar davlat xavfsizligi qarshi qandaydir tahdidlar bo'lganda va ular davlat xavfsizligini ta'minlash kerak deb hisoblasalar favqulodda holat rejimini joriy qilib insonlarning 12-moddaning 1 va 2-bandlarida ko'rsatilgan

huquqlarini cheklashlari mumkin. Keyingi holat bu “jamoat tartibini saqlash” maqsadida ham hukumatlar inson huquqlari ma’lum bir vaqt davomida cheklashlari mumkin. Keyingi holat “aholi salomatligini yoki ma’naviyatini saqlash” maqsadida ham davlat yoki hukumat insonlarning ushbu 12-moddada ko’rsatilgan huquqlarini vaqtincha cheklab qo’yish mumkin. Ushbu normaning yorqin misolini biz COVID-19 davrida guvohi bo’lganmiz, ya’ni dunyoning ko’plab mamlakatlari qatori bizning mamlakatimizda ham “insonlarning salomatligini saqlash” maqsadida insonlarning ko’plab huquqlari jumaladan ushbu paktning 12-moddasi 1-bandida nazarda tutilgan erkin harakatlanish va 2-bandida nazarda tutilgan insonlarning o’z mamlakati yoki boshqa har qanday mamlakatni tark etish huquqlari vaqtinchalik cheklangan edi.

Xulosa: Avvalo inson huquqlari oily qadriyat ekanligini ta’kidlagan holda, ma’lum bir vaqtlardagina ularni cheklashga ruxsat berilishini yuqorida ko’rib o’tdik. Shuningdek ushbu inson huquqlarini cheklashga ruxsat berilgan vaqtlarda ham hukumatlar ma’lum bir xalqaro huquq prinsiplariga rioya qilishi kerakligi ham ta’kidlab o’tildi. Xullas ushbu fikrlarni yakunlaydigan bo’lsak, xalqaro huquq normalariga ko’ra ba’zi bir vaqtlarda, xususan, favqulodda holatlarda inson huquqlarini cheklashga xalqaro huquqiy hujjatlarda ham ruxsat berilgan, lekin ma’lum bir shartlarga rioya qilingan tarzda.

Reference:

- 1.Адельсеитова А. Б., Аблаева Д. С. ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА; ИСТОРИЯ УЧЕНИЙ О ПРАВЕ И ГОСУДАРСТВЕ. КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. 2017.
- 2.“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi pakt”. <https://lex.uz/docs/-2640479>
- 3.[https://hudoc.echr.coe.int/eng#{%22itemid%22:\[%22001-58003%22\]}](https://hudoc.echr.coe.int/eng#{%22itemid%22:[%22001-58003%22]})

INNOVATIVE
ACADEMY